

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING KOGNITIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

N.Kenjayeve,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni yoritilgan. Kognitiv ko‘nikmalarining mohiyati, ular bilan ishlashda an‘anaviy va zamonaviy metodlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xorijda samarali qo‘llanilayotgan metodik yondashuvlar o‘rganilib, ularni o‘zbek adabiyoti darslariga integratsiyalash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv ko‘nikmalar, adabiyot darslari, metodika, tafakkur, metakognitsiya, Task-based learning va Digital storytelling, Project-based learning, adabiyot halkasi.

Abstract. This article highlights the content of developing students' cognitive skills in literature lessons. The essence of cognitive skills, the importance of traditional and modern methods in working with them are analyzed. Also, methodological approaches effectively used abroad were studied, and the possibilities of their integration into Uzbek literature lessons were demonstrated.

Keywords: cognitive skills, literature lessons, methodology, thinking, metacognition, Task-based learning, Digital storytelling, Project-based learning, literature circle.

Аннотация. В данной статье освещается содержание формирования когнитивных навыков учащихся на уроках литературы. Анализируется сущность когнитивных навыков, значение традиционных и современных методов в работе с ними. Также были изучены методические подходы, эффективно используемые за рубежом, и показаны возможности их интеграции в уроки узбекской литературы.

Ключевые слова: когнитивные навыки, уроки литературы, методика, мышление, метакognition, Task-based learning, Digital storytelling, Project-based learning, литературный кружок.

Kirish. Zamonaviy adabiyot darslarining vazifasi faqatgina badiiy matn bilan tanishtirishdan iborat bo‘lmay, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish, baholash kabi kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Ta‘limda bilish, idrok etish, xotira, tafakkur va e‘tibor kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgani ayni haqiqatdir. Bugungi kunda yosh avlodning matn ustida ishlash ko‘nikmalari yuksaltirish, ularda nafaqat axborotni qabul qilish, balki qabul qilish tizimlarini va uni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish kabi dolzarb muammolardan biri sanaladi. Mazkur maqolada o‘quvchilarning kognitiv va metakognitiv faoliyatini yuksaltirish hamda ularning amaliy samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. O‘zbek adabiyoti metodist olimlaridan Q.Husanboyeva, R.Niyazmetova, Q.Yo‘ldoshev, S.Qambarova, K.Jalilov, Z.Mirzayeva, N.Ubaydullayev tomonidan samarali izlanishlar olib borishgan. Ularning tadqiqotlarida zamonaviy adabiyot o‘qitishda yetakchilik qilayotgan, dunyoning rivojlangan davlatlarida keng qo‘llanilayotgan maqbul variantlarni milliy metodikaga olib kirish, ularni kreativlik bilan uyg‘unlashtirgan holda tadbiiq etish, “kitobxon javobi”, Blum taksonomiyasi kabi yangicha yondashuvlar taklif qilinadi. Q.Husanboyevaning fikricha, “Kognitiv ko‘nikmalar –

o'quvchining bilim olishi, ularni saqlash, tahlil qilish va mavjud tajribalar bilan solishtiruvchi, xulosalovchi tafakkur jarayonlaridir." Shuningdek, jahon tajribasida Ziya Selçuk, Ayla Oktay, Fazilet Aşkar, Cemil Öztürk, Halit Karatay va Yaşar Aydemir kabi turk olimlari tomonidan adabiy ta'limda kognitiv va metokognitiv strategiyalar yuzasidan keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ularda sinfdan tashqari ishlar va kichik guruhli tahlillarning kognitivlikni oshiruvchi rolini yuqori baholangan.

Tadqiqot metadoliyasi. Kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishda, asosan, an'anaviy metodlardan foydalanadi. Adabiyot darslarida an'anaviy metodlar, asosan, o'qituvchidan bilim olishga yo'naltirilgan, bilimlarni mustahkomlovchi, xotira mashqi va didaktik talablar jihatidan ustuvorlik qilsa, zamonaviy metodlar o'quvchining fikr yuritish, xulosa chiqarish, baholash kabi faoliyatlarini rag'batlantirishga e'tibor qaratadi. Adabiyot darslarida ko'p hollarda "Ma'ruza", "Savol-javob", "Reja tuzish", "Ifodali oqish" kabi an'anaviy metod va usullar qo'llaniladi. Bu metodlar adabiyot darslarining asosiy tayanch metodlari sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy metodikada yana bir qancha metodlarga to'xtalib o'tishadi. Xususan, metodist S.Qambarova empatiya, mohiyatni ko'ra olish, obrazli ko'rish, ramziy ko'rish, evristik savollar, taqqoslash, evristik kuzatish, tadqiqot, tushunchalarni yig'ish va ilmiy faraz (gipoteza) kabi metodlarning kognitivlik xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi: "S.Qambarova. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi" Tadqiqot jarayonida adabiyot darslarida qo'llaniladigan an'anaviy metodlar (ma'ruza, savol-javob, reja tuzish, ifodali o'qish) va zamonaviy interaktiv yondashuvlarning (Adabiyot halqasi, Task-based learning, Digital storytelling) kognitiv imkoniyatlarini aniqlash maqsadida qiyosiy-pedagogik tahlil metodidan foydalanildi. Shuningdek, Turkiya va Evropa ta'lim tizimida sinalgan 4-5 kishilik kichik guruhlarga asoslangan "Adabiyot halqasi" usulining o'zbek maktablari adabiyot to'garaklari tarkibiga integratsiya qilinish mexanizmi tahlil doirasiga olindi.

Turk adabiyotini o'qitish bo'yicha so'nggi tadqiqotlarda samarali deya topilgan va keng tatbiq etilayotgan *Task-based learning* va *Digital storytelling* metodi o'zbek adabiyoti ta'limiga yangicha ruh olib kirishi mumkin. Ushbu metodlar o'quvchini faqat tinglovchi emas, balki izlanuvchi, mustaqil harakat qiluvchi, fikrlovchi, ijodiy yaratuvchi subyektgacha aylantiradi. Bu metodlar o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Darslar interaktiv shaklga kiradi, o'quvchilarda axborotni qayta ishlash, ifodalash, muloqotga kirishish ko'nikmalari rivojlanadi.

Task-based learning (TBL) – (vazifaga asoslangan o'qitish) dastlab ingliz tili o'qitish metodikasida, keyinchalik Turkiya maktablarida adabiyot faniga moslashtirilgan holda olib kiriladi. Bu metod o'quvchilarda muayyan vazifani bajarish orqali bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir topshiriq muammoni hal etishga qaratilgan bo'ladi. O'quvchi vazifa davomida muloqot qiladi, axborotni izlaydi, tahlil qiladi. Ushbu metod 1980-yilda hindistonlik Prabhu tomonidan ingliz ta'limida ilk bor qo'llangan. Bu metodning asosi "vazifa". Avval vazifa beriladi, bajarilgan vazifa yuzasidan o'qituvchi va

o‘quvchilar bilan birgalikda ishlaydi. So‘nggi bosqichda mulohazalar yuritiladi. Bu metodning samaradorligi, ayniqsa, biografik manbalar bilan ishlash jarayonida yuqori natija berishidir. Masalan, adabiyot darslarida mashur biografik qissa G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarini tahlilga tortish mumkin. Bunda o‘qituvchi darsga adibning tarjimai holi bilan bog‘liq kerakli manbalarni keltirib ko‘rsata olishi lozim. Yozuvchi uy-muzeyiga virtual sayohat, sun‘iy intellekt imkoniyati doirasida adib portretini jonlantirish, hayotini sharhlashi mumkin (adibning o‘zi tomonidan qisqacha holda). Natijada yangi dars bayoni orqali o‘quvchi diqqati mavzuga to‘liq jalb etiladi.

“Shum bola” asarining kinofilmini qisqa holda talqin qilish. Asarni o‘qitishda *task-topshiriq* sifatida tarjimai holidan boshlab muammoli savol va topshiriqlarni keltirish mumkin. Bunda o‘quvchilar diqqati quyidagilarga qaratiladi:

1. Yozuvchi yashagan davr va sanalarga e‘tibor bering.
2. Uning oilasi, yashash muhiti, ijtimoiy holatiga diqqat qaring.

Vazifa: E‘tibor qaratgan o‘rinlardagi yozuvchi biografiyasi va Shum bola taqdiridagi o‘xshashliklarni qiyosiy tahlil qilish.

Bunda o‘quvchi vazifani to‘liq anglab yetsa, ijodiy yondashish qobiliyati ham shakllanadi. O‘quvchi asar bilan tanishadi, o‘qituvchi bergan ijodkor biografik ma‘lumotlari asosida ixtiyoriy tarzda indivudal yoki guruh holida vazifaga tayyorlanib kelishadi. Vazifalarni turli xil taqdim etishlari mumkin. Guruh bilan ishlaganda sahnalashtirishi, intervyu olishi, video rolik tayyorlashi, tadbir rejalasini tuzish kabi faoliyat turlari bajariladi. Indivudal holatda esa “Og‘zaki taqdimot”, “Muallifga xat”, “Qahramon xaritasi” (voqealar va muammolar ketma-ketligi ifodalanadi, yechim beriladi), “Qisqa podkast” (o‘quvchi uyida qisqacha podkast ham tayyorlashi mumkin). Vazifalar taqdimoti uchun ma‘lum vaqt belgilanadi.

Namuna sifatida yana bir qancha topshiriqlar berish mumkin. Bunda o‘quvchi ixtiyoriy ravishda belgilangan topshiriqlardan birini tanlaydi, asar va yozuvchi biografiasini taqqoslab mustaqil tahlil eta oladi, o‘zida mavjud hayotiy tajribalar orqali ijodkor ruhini yaxshi anglay oladi. *“Kognitiv nazariyada – sxema (inglizcha – schema) tushunchasi mavjud bo‘lib, bu tushuncha inson xotirasida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Inson yangi ma‘lumotlarni qabul qilayotganda o‘zida avvaldan mavjud sxemalar bilan muqoyasa qiladi va ana shu sxemaga mos tushgan yangi ma‘lumotlarni nisbatan yaxshiroq va osonroq o‘zlashtiradi”*

Avtobiografik bitiklar tahlili orqali kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishda quyidagi topshiriqlarni keltirish ham samaralidir:

1. Qahramonning harakati orqali yozuvchining qanday xotiralari yoritilgan?
2. Asardan 3 ta lavhani tanlang, ularning real hayot bilan bog‘liqligini isbotlang.
3. “O‘z hayotingizdan “Shum bola”ga o‘xshash voqea haqida hikoya yozing” (avtobiografik yozma topshiriq).

Zamonaviy metodlardan yana biri bu *Project-based learning* (loyiha asosidagi o'qitish) metodining qo'llanilishi Project-based learning (PBL) – ingliz ta'lim tizimida shakllangan metod bo'lib, bu yondashuvda o'quvchi ma'lum bir mavzu bo'yicha tadqiqot olib boradi, loyiha tayyorlaydi va natijani taqdim etadi. Ushbu metod orqali o'quvchi mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatni tahlil qilish, ijtimoiy va axborot savodxonligi kabi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'quvchi adabiy matnni chuqur o'zlashtirish va uni amaliyot bilan bog'lashga o'rganadi. Eng muhimi, shaxsiy izlanishga, biografik ma'lumotlarni izlab topishga qiziqadi. Bunday asosiy maqsad o'quvchilarning loyiha yaratishi, uni himoya qilishi, o'qituvchi doimgidek kuzatuvchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Tavsiya etiladigan topshiriqlar:

a) Qoravoyning bolaligi aks etgan ijtimoiy hayotga asoslangan holda “Bolalik va hozirgi bolalik” loyihasini taklif qilish;

b) yozuvchi uyiga (yoki uy-muzeyiga), virtual muzeylarga sayohat uyushtirish;

d) maket tayyorlash: yozuvchi uyini, asardagi ma'lum bir sujet makonini yaratish;

e) ijtimoiy viderolik yoki post tayyorlash;

Tavsiya etiladigan savollar:

1. Qahramon hayoti orqali muallif qanday davrni ko'rsatgan?

2. Asar va o'zingizning bolaligingiz bilan bog'liq qanday o'xshash va farqli jihatlar bor?

3. Agar siz Qoravoyning o'rnida bo'lganingizda o'zingizni qanday tutgan bo'lardingiz?

4. “Shum bola”dagi voqealarni G'afur G'ulom hayotidagi faktlar bilan taqqoslang.

Yuqorida qayd etilgan metodlar bo'yicha turk professor Derya Yayli tadqiqot olib borgan. Uning bu boradagi izlanishlari o'quvchi fikrlashida mustqalikka tayanish, real voqealiklar bilan bog'lab o'rgatish, kommunikativ funksiyalarni oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Metodist olimlarimiz an'anaviy metodlarni interaktiv yondashuvlar bilan boyitilishi samarali natijalar berishini ham ta'kidlashgan. Quyidagi jadvalda an'aviy metodlarning kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishdagi cheklov va imkoniyatlariga individual yondashib ko'ramiz.

Metod va usullar	+	-
Ma'ruza	Muallif hayoti va ijodini to'liq yoritadi, to'liq ma'lumotlar keltiriladi	O'quvchi darsga passiv ishtirok etadi.
Savol-javob	Fikrlarni faollashtiradi, xotirani mustahkamlaydi.	O'quvchilarni to'liq qamrab olish ehtimoli past. Savollar odatda yuzaki holda shakllantiriladi.
Matnga asoslangan tahlil	Asar matnining kompozitsion tahlili, analiz, izohlash, matn ustida ishlash	“O'qituvchi pozitsiyasida fikrlash”, biryozlama fikrga urg'u beriladi.
Reja tuzish	Fikrlarni tartiblash, g'oyalar ketma-ketligini aniqlash va	O'quvchi shaxsiy qarashlarini chegaralaydi.

	yo'zish	
Ifodali o'qish	O'quvchi ovozi, nutqi bilan ishlash, ovoz intonatsiyalarini to'g'rilash	Tahlil imkoniyatini cheklaydi.

Bu kabi usullar darslarda o'z samarasini berib, yillar davomida o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilgan bo'lsada, ushbu cheklovlarni bartaraf etish uchun "Adabiyot halqasi" metodi natijalari o'rganilganda, o'quvchilar o'rtasida o'qish qobiliyati turlicha bo'lgan kichik guruhlarda aylana stol atrofida mustaqil tahlil yuritish, o'quvchining o'z qarashlarini himoya qilish qobiliyatini keskin oshirishi aniqlandi. Turkiya adabiyot ta'limi tajribasidan kirib kelgan Task-based learning (Vazifaga asoslangan o'qitish) va Digital storytelling (Raqamli hikoyachilik) metodlari esa o'quvchini passiv tinglovchidan ijodiy va tanqidiy fikrlovchi subyektga aylantirishi isbotlandi. Bu tadqiqot ishlarini o'rganish orqali kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishda sinfdan tashqari ishlar, to'garaklarga katta e'tibor qaratiladi. "Adabiyot halkasi" usuli kognitivlikni oshiruvchi eng samarali metodlardan biri sifatida ko'rsatiladi. Ushbu metod to'garaklar faoliyatiga tayanib, umumiy soni 4 yoki 5 nafarni tashkil qiluvchi o'qish qobiliyati turlicha bo'lgan kichik o'quvchilar guruhidan tashkil topadi. Ular o'rtasida ma'lum bir matn yoki kitob tanlanadi. O'quvchilar tomonidan o'qib kelingan asar ma'lum bir vaqtda aylana stol atrofida tahlil qilinadi. Barcha jarayonlar o'quvchilarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi. O'qituvchi bunda *kuzatuvchi* sifatida ishtirok etadi. Mavzu yuzasidan fikr-mulohazalar almashiladi. Jarayon qizg'in kechib unda o'quvchilarda o'z qarashlarini rivojlantirish, fikrlarini himoya qila olish qobiliyatini rivojlantiradi. Yakuniy bosqichda qiziqishlar doirasidan kelib chiqib yangi bir asar tanlashadi va vaqt beriladi.

O'qigan asarlari bo'yicha o'quvchilar o'z sinfdoshlariga ham taassurot va bilimlarini yarim aylana shaklida yig'ilgan holda yetkazib beradi. Guruhda o'quvchilar darajasining xilma-xil bo'lishi o'quvchilarni mustaqil harakat qilishga, kelishuv asosida ma'lum to'xtamga kelishga undaydi. O'qituvchi ko'magisiz o'zaro badiiy matn yoki kitob tanlash, kelishilgan vaqtda tahlil qilinishi, yangi asarlarni tanlash kutilgan ta'lim samaradorligining yuqori ko'rsatkichlarini beradi. Shuningdek, bu kabi guruhlar sonini ko'paytirish ham mumkin. O'quvchilar o'zaro mustaqil tahlil ko'nikmalarini egallagach, xuddi shu tartibda yana bir qancha guruhlar sonini oshirish mumkin.

Respublikamizda adabiyotdan to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan, odatda, bu jarayon yangi bilim beruvchi dars turlariga aylanib, "Savol-javob", "Qayta so'zlash", "Reja tuzish" kabi an'anaviy dars jarayonlaridek kechadi. Yuqorida keltirilgan yondashuv bilan to'garaklar jarayoni o'zgartirilsa, o'quvchi fikrlash qobiliyatini to'liq o'zi nazorat qila olishi, o'z fikrlash jaryonini kuzatish, himoya qilish, yakuniy xulosalarni mustaqil chiqarish ya'ni metokognitsiyaga yo'l ochadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adabiyot darslarida kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish o'quvchining shaxsiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi, zamonaviy ta'limning

ustuvor yoʻnalishidir. Anʻanaviy oʻqitishning zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilishi, xorijiy tajribadagi innovatsion metodlar tavsiya sifatida joriy etilishi kognitiv koʻnikmalar rivojiga yoʻnaltirilgan topshiriqlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, anʻanaviy dars metodlarini inkor etmagan holda, ularni bunday zamonaviy kognitiv usullar bilan boyitish – XXI asr oʻquvchisida tanqidiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish koʻnikmalarini shakllantirishning yagona kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.– 391 b.
2. S.Qambarova. Oʻzbek adabiyotini oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Mahalla va oila, 2022. – 127 b.
3. Z.Mirzayeva, K.Jalilov Oʻzbek adabiyotini oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Academ Space, 2024. – 205 b.
4. Yayli Derya. Göreve Dayalı Öğrenme Yönteminin Türkçenin Yabancı Dil Olarak Öğretiminde Uygulanması ve Bu Uygulamaya İlişkin Öğrenci Görüşleri – Dokuz Eylül Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2004. – P. 200-250.
5. Robin, B. Digital storytelling in the classroom // Theory Into Practice. – 2008. – P. 220–228.
6. Demirel Ö. Türkçe öğretiminde görev temelli öğretim modeli. – Ankara: Pegem Akademi, 2018.Nilufarr, [7/31/2025 9:45 PM]
7. Anderson L.W., Krathwohl D.R. A taxonomy for learning, teaching and assessing. New York: Longman, 2001. – P.336-352.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934